

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI TIZIMIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH ISHLARI MUAMMO VA YECHIMLARI.

Jabborova Oyshaxon

*maktab psixologi Namangan viloyat
Namangan tuman 12-sonli maktab.*

Dunyoda kasblar ko'p, lekin ular orasidan sevimli kasbni tanlashimiz– bu hayotga qo'ygan ilk qadamimiz hisoblanadi. Har bir inson dunyoga kelibdiki, hayotda o'z oldiga qo'ygan maqsadi bo'ladi. Bu maqsad orqasidan nimalarga erishish mumkin? Hayotda o'zi xoxlagan narsalarga erishishi, buning natijasida baxtli yashashi mumkin. Sevimli kasbni tanlashda avvalo odam o'zining his-tuyg'ulariga e'tibor berishi lozim.

O'quvchi yoshlar ham o'zi qiziqqan sohasini to'liq bilmaydi, ya'ni, kasblar haqida to'liq ma'lumotga ega emas. Buning uchun maktab psixologlari ko'magida, ishini sevuvchi va o'z ishini ustasi bo'lgan xodimlar bilan uchrashuvlar, “ochiq eshiklar kuni” kabi ochiq muloqotlarda o'quvchi yoshlarga kerakli bilimlarni berish lozim. Bunda maktab psixologi qanday yordam beradi – degan savol tug'ilishi tabiiydir. Suhbat o'tkazgan ishchi xodim suhbatidan o'quvchi ruhiyatiga bog'liq bo'lgan tomonlarini aytib o'tish, o'quvchi bilan individual ishlash va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda o'quvchi yoshlarga maslahat berish kerak bo'ladi. Bu ishni ko'proq sinf rahbarlari va psixolog o'qituvchilarga topshirish tavsiya etiladi.

Negaki, o'quvchi ichidagi gaplarini hammaga ham aytavermaydi. Agar o'quvchi bilan ko'proq suhbat o'tkazilsa, bunday hollarda o'quvchi o'qituvchiga ishonishni boshlaydi. Buning orqasidan uning nimaga qobiliyati bor, nimaga ko'proq qiziqadi degan savollarga javob olish mumkin, lekin shu narsani esdan chiqarmaslik lozimki, bunday vaziyatda har bir aytilgan gap o'quvchini yo ishontiradi yo butunlay o'z qobig'iga o'ralib olishiga sabab bo'ladi. Bu qobiqni hammaga ham ochavermaydi. O'quvchi o'smirlik davrida hamma narsaga tanqidiy ko'z bilan qaraydigan, hammaga ham ishonavermaydigan bo'lib qoladi.

Psixolog shunaqa o'quvchilar bilan gaplashganda uning har bir so'ziga ishonishni boshlaydi. Shu tariqa o'quvchi o'z qiziqishlarini bilib olishga intiladi. O'quvchi uchun hamma kasblar haqida to'liq ma'lumot berilganda, uning fikri o'zgarib, o'zini boshqa kasblarda namoyon qilishi aniq bo'ladi. Nega biz tanlaydigan kasbimizni sevishimiz kerak; ishlasak, pul topsak, oila tebratsak bo'ldimasmi? degan savollar o'smirlarda ko'p paydo bo'ladi.

Biz o'z kasbimizni sevishimiz orqali kasbiy toliqishni orqaga surishimiz mumkin. O'zimizga yoqadigan kasbni egallashimiz orqali hayotdan rozi bolib yashaymiz.

Ammo muammoning ikkinchi tomoni ham bor, moddiy tomondan qiynalsak, unda nima bo'ladi? Tasavvur qilaylik, oldimizda ikkita tanlov turibdi. Birinchisi sevimli kasbimiz va yana bitta kasb. Sevgan kasbimizdan qoniqamiz, lekin moddiy tomondan qiynalishimizni bilamiz. Ikkinchi kasbda esa sevmaymiz, lekin ishlasak bo'ladi. Moddiy tomondan ham qiynalmaymiz. Shu vaziyatda ikkinchisini tanlab qolganiga e'tibor bermasak, tez orada, ya'ni 40-45 yoshlar oralig'ida kasbiy toliqish paydo bo'ladi. Odam o'zini kasbini sevmaganidan keyin o'zini ustida ishlaganini foydasi kam bo'ladi. Bunday vaziyatda nima qilishim kerak? To'g'ri hozirgi tez o'zgarib ketayotgan zamonda moddiy tomondan yetishmovchilik bo'lishi ancha orqada qolishga sabab bo'lishi turgan gap. Ayniqsa hozir ko'pchilik yurish turishingga, kiyinishingga va topayotgan daromadingga qarab muomala qilishadi. Shuning uchun bu yerda berilgan ikkinchi kasbni tanlab, sevgan kasbimizni tashlab qo'ymasligimiz kerak. Moddiy tomondan o'zimizni qoniqtiradiganini tanlab, sevgan kasbimizni shunchaki qiziqish bo'lsa davom ettirish mumkin. Sevgan kasbimizdagi yutuqlarimiz tufayli kasbiy toliqishni anchagini orqaga suramiz. Sevgan kasbingiz hech qachon armon bo'lib qolmasin, chunki 45-50 yoshga kirib "Eh, shu ishni qilganimda hozir baxtli yashardim. Moddiy tomondan ozgina qiynalsam ham o'tib ketardi",- deb qolishingiz turgan gap. Buni eslab har safar ezilish, qila olmagan ishlaringizni keyinchalik farzandlaringiz, nabiralaringiz egallashini hohlashingiz orqali ularni ham o'zingiz singari afsuslanadigan qilib qo'yishingiz mumkin. Ularga faqatgina "Shu kasbni taklif qilaman",- deb tavsiya berishingiz orqali juda katta yordam bergan bo'lasiz. Hamma shunaqa maslahat berib, bu kasb orqali erishilishi mumkin bo'lgan yutuqlarni sanab va oxirida "Bu senga oddiygina maslahat, bunaqa yutuqlarga hamma sohada erishsang bo'ladi. Men faqat shu sohani bilganim uchun shu soha haqida gapirdim. Tanlov o'zingni qo'lingda",- deydigan bo'lsak o'smir kasb tanlashda qiynalmay o'z yo'lini osongina topib ketadi. "O'z qobiliyatlarini oqilona baholay olmasliklari tufayli u yoki bu kasbni egallash uchun qanchalik tez va aniq harakat qila olishlarini, bu ishga moslasha olishlari mumkunligini bilmaydilar.

O'smirlarni hali to'la katta deb hisoblab bo'lmaydi, chunki ularning shaxsiy xususiyatlarida hali bolalikni kuzatish mumkin. Bu ularning fikrlarida, berayotgan baholarida, hayotga va o'z kelajaklari munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik o'spirinlar; maktabni tugatish vaqtiga kelib ham kasb tanlashga nisbatan mas'uliyatsiz yondoshadilar. Bu davr o'spirinning axloqan o'z-o'zini anglashi shuningdek, axloqning yangi bosqichiga o'tishi bilan xarakterlanadi. Intellecti yaxshi rivojlangan o'spirinlar kattalarni tashvishga solayotgan masala muammolarini tushuna oladilar va

ularni muhokama eta oladilar. O'smirlar juda ko'p muammoli savollarga javob yo'llaydilar. Ularning diqqatini ko'proq axloqiy masalalar tortadi. Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun axloqiy masalalarni echish manbai - bu ular uchun o'qituvchilar bulsa, o'smirlar bu savollarga javobni ko'proq tengdoshlari davrasida qidiradilar o'spirin yoshdagilar esa savollarga to'g'ri javobni topishda ko'proq katta kishilar foydalanadigan manbalarga murojaat etadilar. Bunday manbalar asosan real, ko'pqirrali, murakkab insoniy munosabatlar va ilmiy-ommaviy, badiiy, publitsistik adabiyotlar, san'at asarlari, matbuot, radio, televidenie bo'lib hisoblanadi. Bugungi o'smirinlarga hayotga nisbatan hushyor, aqliy-amaliy qarash, erkinlik va mustaqillik xos. Ular haqqoniy bo'lish tushunchasiga ham real tarzda yondoshmoqdalar Masalan: o'tgan yillardek "haqqoniylik bu hammaga bir xil emas, har kimning imkoniyatiga qarab va hammaning ishiga yoki manfaatlariga qo'shgan hissasiga qarab belgilanadi", deb tushunadilar va talqin etadilar. Maktabni tugallash vaqtiga kelib, juda kup o'smirlar axloqiy jihatdan shakllangan va ma'lum axloq normalari qat'iylashgan xususiyatlariga ega bo'ladilar. O'smirlarda axloqiy dunyoqarash bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, diniy va boshqa sohalar buyicha ma'lum bir qarashlar vujudga keladi. Juda ko'p yillardan beri o'spirinlarni yaxshilik va yomonlik, xaqiqat va noqonuniylik, axloqiylik va axloqsizlik masalalari tashvishlantirib keladi. Hozirgi davr o'spirinlari har bir narsaga ishonuvchan yoki salbiy munosabatlarga xos bulmay, balki hayotga real, aqliy, amaliy qaraydigan, ko'proq erkin va mustaqil bo'lishga intiluvchi yoshlardir. O'smirlar ongli ravishda egallangan axloq normalari asosida o'z xarakatlarini yo'lga solishga intiladilar. Bu esa, avvalo o'smirinning o'zini anglashining o'sishida namoyon bo'ladi. o'zini anglash murakkab psixologik struktura bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi. - birinchidan bolada tashqi olamdagi predmet ta'siridan paydo bo'lgan sezgilari o'z tanasi bilan farq qila boshlaganda vujudga keladi; - ikkinchidan, o'zining shaxsiy "Men" ligini aktiv faoliyati asosida anglashi; - uchinchidan, o'zining psixik xususiyati va xislatlarini anglashi; - to'rtinchidan, ijtimoiy, axloqiy o'z-o'ziga baxo berishning ma'lum sistemasini anglashi. Mana shu elementlarning barchasi bir-biri bilan funktsional va genetik bog'langandir. Lekin, bularning hammasi sizga ma'lumki, bir vaqtning o'zida shakllanmaydi. Bolaning "men"ligini anglashi taxmini 3 yoshda paydo bo'ladi, bunda bola shaxsiy olmoshni ishlata boshlaydi. Masalan: men, meniki, mendan va hokazo, o'zining psixik sifatlarini anglash va o'z-o'ziga berish o'spirinlik yoshida, borgan sari ko'proq ahamiyat kasb eta boshlaydi.